

O'QUVCHILAR TEMPERAMENTINING O'ZLASHTIRISH KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI

Qarabayev Jamshid Rustamovich

Namangan davlat universiteti ta'lim menejmenti kafedrasi katta o'qituvchisi

Muxtorova Dilfuza Mahmudjon qizi

Namangan davlat universiteti, ta'lim menejmenti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *O'quvchilarga bilim berishda ularning temperament tiplari va individual xususiyatlarini hisobga olish samarali ta'lim garoovidir.*

Kalit so'zlar: *temperament, xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik.*

Аннотация: Учет типов темперамента и индивидуальных особенностей учащихся является залогом эффективного обучения.

Ключевые слова: *темперамент, холерик, сангвиник, флегматик, меланхолик.*

Abstract: *Taking into account temperament types and individual characteristics of students is a guarantee of effective education.*

Key words: *temperament, choleric, sanguine, phlegmatic, melancholic.*

Inson dunyoga kelganidan to umrining oxirigacha doimiy faoliyatda bo'ladi va bu faoliyatning zamiri uning nutqi, tafakkuri va albatta, xarakter xislatlariga borib taqaladi. Ruhiy jihatdan o'rganilganda, har bir inson alohida temperament tipiga mansub hisoblanadi. Temperament deganda, biz odatda kishining tabiiy tug'ma xususiyatlari bilan bog'liq bo'lган individual hislatlarini tushunamiz. Odatda, biz bolalar bilan muloqotga kirishganimizda ularning xarakterini tez, betoqat, serg'ayrat jo'shchin, ba'zilarini esa lapashang, sustkash deb ataymiz. Aslida, kishining bu xildagi individual xususiyatlaridan uning temperamenti tarkib topadi. Bola oilada, maktabda, tashqi muhitda nimani xohlaydi-yu va bunga javoban kattalar qanday munosabat bildirishi, bolaning keyingi faoliyatiga ta'sir etmay qolmaydi.

Sangviniklar – sho'x, quvnoq, tirishqoq va ta'sirchan o'quvchilardir. Ular tevarak atrofqa tez moslashadi. Ular bilimni tez va oson o'zlashtirsalarda, hamma vaqt ham puxta egallamaydilar. Muomalada ular ko'proq shirinsuxan, quvnoq va gapdon odamlardir. Sangviniklar ishga osongina berilib ketib, jadal ishlashga qodir bo'lishadi, lekin muntazam ravishda doimiy mehnat qilishga ancha qiynaladilar. Shu bilan birga ular tirishqoq va faol bo'lishadi, boshqa kishilar bilan osongina til topishadi. Sangviniklar juda muloqotchan uning do'stlari ko'p. U ko'p narsalarni jiddiy qabul qilmaydi. Bo'lar-bo'lmas narsalarga kulaveradi. Muhim bo'lмаган fakt qattiq jahlini chiqaradi. Diqqatini jalb qilgan hamma narsalarga tetik va zo'r qo'zg'alish bilan javob beradi. Imo-ishoralarini va harakatlari yaqqol ko'rinish turadi. Uning aft-basharasiga qarab kayfiyatining qandayligini, narsalarga yoki odamga bo'lган munosabatlarini bilish oson. Diqqatini tez bir joyga to'playdi. Atrofda bo'layotgan vazifalarga tez munosabatini bildiruvchi, taassurotlarni hadeb o'zgartirishga intiluvchi, ko'ngilsizliklarni nisbatan yengil o'tkazib yuboruvchi, harakatchan, ifodalni mimikasi va harakatlari bo'lган kishi sangvinik deyiladi. Sangvinik temperamenti vakillarida his tuyg'ulari odatda tashqi ko'rinishda yorqin ifodalangan bo'ladi: manoli mimika, imo ishora tez harakatlar qilish, tez gapirish, beqarorlik, harakatchanlik, chaqqonlik. Bularning hammasi sangvinik ishchan, faol bo'lган

payda ayniqsa sezilarli bo'ladi. Sangvinikning kayfiyati tez o'zgaradi. U goho xursand, goho beparvo, goho esa qayg'uli va tashvishlangan biroq, odat bo'yicha yaxshi kayfiyat ustun bo'ladi. Kishi ruhini ezadigan va yoqimsiz narsalarning hammasidan sangvinik tez qutiladi. Atrofdagi ta'sirlarga oson va tez javob beradi. Sangviniklar aktiv o'quvchilar hisoblanadi. O'quvchilar bilan tez til topishib ketadi, osonlik bilan yaxshi munosabatlar o'rnatadi. Sangvinik temperamenti vakillari ko'p gapiradi, shunga qaramasdan yaxshi tinglovchi hamdir.

Flegmatiklar - vazmin odamlar. Ular uchun shoshmaslik va bosiqlik xos. Bunday odamlar murakkab hayotiy vaziyatlarda kamharakat bo'lishsada, qo'yilgan maqsadni amalga oshirishda ancha dadil bo'lishadi. Bilimni sekinroq o'zlashtirsalar ham , puxta egallahadi. Agar sangvinik alangaga o'xshatilsa u tez yonib tezda so'nadi, flegmatik sekin va uzoq yonadigan alangaga o'xshaydi. Biror narsaga tez javob qilish kerak bo'lsa flegmatiklar vaqtini boy berib qo'yadilar. Bunday paytlarda sangvinikning ustunligi sezilib turadi. Qat'iylik, iroda va sabr-toqat talab qiladigan ishlarda esa flegmatik ustunlik qiladi. Flegmatik - senzitivligi sust, hissiy qo'zg'aluvchanligi oz, kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Katta ko'ngilsiz hodisa yuz berganda ham osoyishtaligini buzmaydi. Chidamliligi, matonati, o'zini tuta bilishi bilan ajralib turadi. Harakatlarining tempi va nutqining tempi sust, ifodasiz. Diqqatini sekinlik bilan to'playdi. Diqqatini qiyinchilik bilan ko'chiradi. Yangi sharoitga qiyinchilik bilan moslashadi. Introvert. Yangi odamlarga taassurotlarga qiyinchilik bilan javob qaytaradi, qiyinchilik bilan qo'shiladi. U odatda boshlagan ishini oxiriga yetkazadi, hissiyotlari tashqi ko'rinishida kuchsiz bo'lib, ravshan emas. Flegmatik temperamentli kishilarning xotirjamligi uning hayotdagi voqeja va hodisaga bo'lgan munosabatida ham nomoyon bo'ladi. Bazan, bu temperamentli kishida mehnatga, tevarak atrofdagi hayotga kishilarga va hatto o'ziga nisbatan beparvo munosabatda bo'lish hollari avj olishi mumkin. Flegmatik temperamentli o'quvchining o'quv faoliyatida ayniqsa tez eslab qolish, tez tushunish, faxmlab olish va tez bajarish talab qilinadigan hollarda uning sustkashligi to'sqinlik qilishi mumkin. Bunday hollarda flegmatik temperamentli bola ojizlik qilishi mumkin, biroq u hamma narsani asosli va mustahkam eslab qoladi. Flegmatik-temperamentli kishilarda o'zini tuta bilish, sovuqqonlik, xotirjamlik hislarini xosil qilish juda oson.

Xoleriklar - jizzaki odamlar. Xoleriklar - kuchli, chaqqon, jizzaki va harakatchan o'quvchilardir. Ularning o'ziga xos xususiyati - jizzakilik va beqarorlik. Xolerik temperamentidagi o'quvchilarga liderlik xosdir. Xoleriklar juda faol va ishchan bo'lishadi. Biroq, ular bir maromda ishlay olishmaydi, goh g'ayrat, bilan goh imillab ishlashadi. Shuning uchun ham ehtiyyotkorlik, sabr-toqat va chidam talab qilinadigan vaziyatlarda xoleriklar qiyin ahvolga tushib qolishadi. Xolerik xuddi sangvinik kabi sust senzitivlik, yuksak reaktivlik hamda faollik bilan ajralib turadi. Shuning uchun u betoqat, serzarda. Psixik tempi tez. Bir ishni boshlasa oxiriga yetkazadi, ammo unga qiziqla. Juda g'ayratli, ishga juda ehtiros bilan berilish qobiliyatiga ega bo'lgan, tez va shiddatli. Xolerik temperamentli o'quvchilardan doimo muloyimlik ammo, qatiyatlik bilan shoshilmay o'ylab javob qaytarishlarini talab qilish ular xatti xarakatlarida o'rtoqlari va kattalar bilan bo'lgan munosabatida o'zini tuta bilishlikni muntazam ravishda tarbiyalab borish lozim.

Melanxoliklar - jur'atsiz va ruhan zaif o'quvchilar. Bu toifadagilar g'amgin, jur'atsiz va ma'yus kishilardir. Salga charchash, biror ishga yetarlicha jur'at etmaslik, o'z fikr va istaklarini qondira olmaslik ular uchun juda xos. Melanxoliklar ko'pincha arzimagan qiyinchiliklarga

bardosh bera olmaydilar, ularga qarshi kurashdan voz kechadilar. Melanxoliklarning tashqi ko'rinishi doimo tushkun va g'amgin odamni eslatadi. Ular depressiyaga moyil bo'ladilar. Melanxolik - yuksak senzitivlik xususiyatiga ega. Sezgirligi yuksak (sezgi chegaralari yuqori). Arzimagan sababga ko'ra, ko'zlaridan yosh oqib ketaveradi. Nihoyatda arazchan, sekin yig'laydi. Samimiyl, juda oz kuladi, faolligi sust. O'ziga ishonmaydi, tortinchoq, ozgina qiyinchilik tug'iladigan bo'lsa, qo'lini yuvib qo'lting'iga urib qo'ya qoladi. G'ayratsiz, qatiy emas. Diqqati tez chalg'iydi, barqaror emas. Introvertlik xususiyatiga ega. Ta'sirchan, chuqur kechinmali, gap ko'tara olmaydigan, ammo atrofdagi voqealarga unchalik e'tibor bermaydigan, o'zini to'xtata oladigan va sekin ovoz chiqaradigan kishilar melanxoliklar deb ataladi. Melanxoliklar ishda odatga ko'ra passiv, ko'pincha kam qiziquvchan bo'ladilar. Melanxoliklarni ranjitish oson, garchi ularning tashqi ko'rinishida bu kechinmalarining hammasi kuchsiz ifodalansa ham xafagarchilikka bardosh bera olmaydilar. Melanxolik temperamentli kishilar odamlarga aralashmaslikka va yolg'izlikka moyil bo'ladilar. Uncha tanish bo'lмаган yangi kishilar bilan aloqa qilishdan o'zlarini chetga tortadilar yangi sharoitda ko'pincha uyalib o'zlarini noqulay sezadilar. Agar melonxolik temperamentli o'quvchi bolalar jamoasidan o'zini tortsa, ijtimoiy mehnatdan o'zini olib qochsa u osonlikcha yakkalanib qolishi, o'z kechinmalariga chulg'anib qolishi yoki jamoadan chetga chiqib qolishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, bugungi kundagi pedagoglardan o'z mutaxassisliklari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishdan tashqari, o'quvchilar psixologiyasini bilish kabi talablarning qo'yilishini asosli ekanini ko'rishimiz mumkin. Ta'lim jarayonida bolaning temperamentini bilgan holda ish olib borish samarali ta'lim garovidir. Aslida, har bir bola o'qishni yaxshi ko'radi, lekin undagi o'zlashtirish jarayoni turlicha kechadi. Ana shunday paytda, o'qituvchi bola temperamentini inobatga olishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Umumiy psixologiya, darslik, F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova, T- 2009
2. Umumiy psixologiya, darslik, P.I.Ivanov, M.E.Zufarova, T-2008
3. Nuritdinovna, N. M. (2022). BOLA SHAXSINING SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGNING O'RNI. TALIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(4), 61-63.
4. Rustamovich, Q. J. (2023). MUAMMOLI TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 22(4), 115-117.